

ASOSIY KAPITALGA INVESTITSIYALAR


2018 yil yanvar-mart oylarida

Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar

Joriy davrda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi 300,8 mlrd. so'mni yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan 116,9 %ni tashkil etdi. Moliyalashtirish manbalari bo'yicha tahlil qilinganda, joriy davrda o'zlashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalarning katta qismi jalb etilgan mablag'lar hisobiga to'g'ri keldi – 206,0 mlrd.so'm yoki jami o'zlashtirilgan investitsiyalarning 68,5%i, korxonalar va aholining o'z mablag'lari hisobidan esa 94,8 mlrd.so'm yoki jami o'zlashtirilgan investitsiyalarning 37,9 %ini o'zlashtirildi.


Respublika byudjetining joriy davrda o'zlashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalar jami hajmida 9,4 %ni, jalb etilgan mablag'lar hisobidan o'zlashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalar hajmida esa 13,7 %ni tashkil etdi.

Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar



Asosiy kapitalga investitsiyalarning markazlashganlik darajasidan kelib chiqib tahlil qiladigan bo'lsak, markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan 61,1 mlrd.so'm yoki jami o'zlashtirilgan investitsiyalarning 20,3%ini hamda


markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan 239,7 mlrd so`m yoki jami o`zlashtirilgan investitsiyalarning 79,7% i o`zlashtirildi.



Markazlashgan moliyalashtirish manbalarining eng katta qismi - 46,3%i Respublika byudjeti hisobiga to`g`ri keldi. Shuningdek, O`zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy investitsiya va kreditlar 45,1% ni, va Davlat maqsadli jamg`armalari 8,6%ni tashkil etdi.

Respublika byudjeti hisobidan amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalari asosan iqtisodiyotning qishloq xo`jaligida amalga oshirilmoqda. Bunday investitsiya loyihalariga: kollektorlarni tizimli ta`mirlash-tiklash ishlari va meliorativ tik quduqlarni rekonstruksiya qilish.

Suv tarmoqlarini yaxshilash bo`yicha yirik investitsiya loyihalari O`zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan amalga oshirilmoqda.




Markazlashmagan moliyalashtirish manbalarining 31,4%ini korxonalar va tashkilotlarning o'z mablag'lari tashkil etadi. Bu korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi o'z faoliyatlarini kengaytirish hamda texnik va texnologik qayta qurollantirish maqsadidagi investitsiyalarini avvalambor o'z mablag'lari hisobidan amalga oshirishlari bilan bog'liq.


Shuningdek, yo'naltirilgan investitsiyalar ham boshqa moliyalashtirish manbalari bilan korxonalar va tashkilotlarning o'z mablag'lari ishtirokida amalga oshirilmoqda.

Tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz hisobidan o'zlashirilayotgan investitsiyalar hajmi tobora ortib bormoqda. Joriy davrda ushbu moliyalashtirish manbai hisobidan investitsiyalar jami markazlashmagan moliyalashtirish manbalarining 57,8%ini tashkil etdi. Bunda quyidagi yirik investitsiya loyihalarining ulushi katta: farmatsevtika flakonlar va boshqa oyna shishalarni ishlab chiqarish, qattiq va suyuq shaklda dori vositalarini ishlab chiqarish va boshqa investitsiya loyihalari.

Hududlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar




Hududlar kesimida Guliston, Shirin, Yangier shaharlar, Boyovut, Oqoltin, Sayhunobod, Sirdaryo va Xovos tumanlardagi investitsion faollik natijasida yuqori o'sish suratlari qayd etilib, mos ravishda ularning Viloyatdagi ulushi oshib bormoqda.



Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibi

Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibida qurilish montaj ishlari bo'yicha 172,0 mlrd.so'm o'zlashtirilgan bo'lsa, mashinalar, asbob-uskunalarga investitsiyalar 125,3 mlrd.so'm va boshqa xarajatlarga 3,5 mlrd.so'm o'zlashtirildi. Qurilish-montaj ishlariga investitsiyalar joriy yil boshidan biroz ko'payishi kuzatildi. Bu iqtisodiyotda, ayniqsa asosiy qishloq xo'jaligi yaratilayotgan yirik quvvatlariga investitsiyalar bilan bog'liq.




Asosiy kapitalga investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi

Asosiy kapitalga investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibida yuqorida Turar joy qurilishiga qilmoqda. Ushbu tarmoqda jami moliyalashtirish manbalari hisobidan 77,8 mlrd.so`m yoki jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning 25,9%i o`zlashtirilgan.



Turar joy qurilishiga investitsiyalar aholini namunaviy loyihalar asosida qurilayotgan va arzonlashtirilgan uy-joylar qurilishi bo'yicha davlat dasturlarining amalga oshirilishi hamda aholi tomonidan yakka tartibdagi turar-joylar qurilishi hajmlari bilan bog`liq.

Ishlab chiqarish sanoatiga investitsiyalar hajmi 77,1 mlrd.so`mni va jami investitsiyalardagi ulushi 25,6%ni tashkil etdi. Ishlab chiqarish sanoati tarkibida eng ko`p investitsiya o`zlashtirilgan faoliyat turi quyidagi: boshqa no metall mineral maxsulotlari ishlab chiqarish sanoati 29,0 mlrd.so`m (jami asosiy kapitalga investitsiyalardagi ulushi 9,6%).




Joriy davrda 33,8 mlrd so`m yoki asosiy kapitalga investitsiyalarning 11,2%i xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan amalga oshirildi.

Bu Guliston shahar va Xovos tumani yirik investitsiyalar hajmi to'g'ri keldi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan amalga oshirilgan investitsiya loyihasi: Sirdaryo viloyatining Boyovut, Mirzaobod, Oqoltin, Sardoba va Xovos tumanlarini ichimlik suvi bilan ta'minlash tizimini yaxshilash.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga kiritilgan xorijiy investitsiya va kreditlar




Obyektlarni ishga tushirish


Ijtimoiy sohada joriy davrda jami 16,0 ming kv.m, shu jumladan qishloq joylarda 6,1 ming kv.m turar joylar ishga tushirildi. Ulardan namunaviy loyihalar asosida qurilgan turar joylar 3,1 ming kv.m ni tashkil etdi.

Sog'liqni saqlash sohasiga oid obyektlar bo'yicha 100 qatnovga mo'ljallangan oylaviy poliklinika, ta'lim sohasida 40 o'quvchi o'rinli umumta'lim maktab rekonstruksiya qilinib, ishga tushirildi.

Turar joy qurilishida jami Viloyatda ishga tushirilgan turar joylardagi ulushi bo'yicha Guliston shahar, Guliston, Sardoba, Guliston tumanlari yetakchilik qilayotgan bo'lsa, Boyovut va Mirzaobod tumanlarida eng kam turar joylar ishga tushirildi.



Turar joylarning asosan qishloq joylarda qurilayotganligi namunaviy loyihalar asosida qurilayotgan yakka tartibdagi uy joylar qurilishi bo`yicha olib borilayotgan davlat dasturlarining bajarilishi hamda aholining o`zi uchun yakka tartibda qurayotgan uylari bilan bog`liq.





Sirdaryo viloyati statistika boshqarmasi
Investitsiyalar va qurilish
statistikasi bo'limi

Nashr uchun mas'ul:

G.Muxraximova

Aloqa telefoni: (0371) 230-86-27